



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



5. Mavlonova K.M. O'quvchilarda matnni o'qib tushunish malakasini shakllantirish. Global ta'lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 149-154.

6. Mengliyev B. Tilshunoslikning amaliy masalalari. Monografiya. Toshkent, 2020.

7. Mavlonova K. va boshq. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.

8. Mavlonova K. va boshq. Ona tili 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/CDBK5861

TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI

Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna

*filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy
nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Orcid: 0000-0002-2104-450X*

Shirinova Yekaterina Turakulovna

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Alisher Navoiy
nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
yekaterina@navoiy-uni.uz
ORCID: 0000-0002-9164-5327*

Sattarova D.A.

*Toshkent shahri Yunusobod tumani 260-maktabning o'zbek tili, ona tili va
adabiyot o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolda til ta'limiga pragmatik yonadashuv mavzusi tahlil qilinadi. Til ta'limi jarayonida pragmatik yondashuvning ahamiyati, uning nazariy asoslari va amaliyotda qo'llanishi ko'rib chiqiladi. Maqolada til o'rganish jarayonida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish, madaniy kontekstda tilning o'rganilishi va tilshunoslikning zamonaviy talablari bilan bog'liq muammolar hamda yechimlar taklif etiladi. Pragmatik yondashuv, asosan, til o'qitish va o'rganish jarayonida kontekstual ma'lumotlarni hisobga olishni, til ma'lumoti va tajribasini integratsiyalashni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: til ta'limi, pragmatik yondashuv, kommunikativ qobiliyat, til o'qitish, madaniy kontekst.

Аннотация

В данной статье анализируется тема прагматического подхода к языковому образованию. Рассматривается значение прагматического подхода в процессе языкового образования, его теоретические основы и применение на практике. В статье предлагаются проблемы и решения, связанные с развитием коммуникативных навыков в процессе изучения языка, изучением языка в культурном контексте и современными требованиями лингвистики. Прагматический подход в основном обеспечивает учет контекстной информации в процессе преподавания и изучения языка, интеграцию языковых знаний и опыта.



Ключевые слова: языковое образование, прагматический подход, коммуникативные навыки, преподавание языка, культурный контекст ...

Abstract

This article analyzes the topic of the pragmatic approach to language education. It considers the importance of the pragmatic approach in the process of language education, its theoretical foundations and application in practice. The article suggests problems and solutions related to the development of communicative skills in the process of language learning, language learning in a cultural context and modern requirements of linguistics. The pragmatic approach mainly ensures that contextual information is taken into account in the process of teaching and learning a language, integrating language knowledge and experience.

Keywords: language education, pragmatic approach, communicative skills, language teaching, cultural context.

Har bir millat o'z tiliga ega bo'lishi bilan birga, uni o'qitishga, o'rganishga yuqori darajada ehtiyoj sezadi. Shu nuqtayi nazardan til ta'limi dunyoda eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Qolaversa, til ta'limi jarayonida pragmatik yondashuv, ya'ni tilni o'rganishda kontekst, madaniyat va tilni ishlatish holatlari muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola til ta'limida pragmatik yondashuvning imkoniyatlari va muammolarini o'rganadi.

Pragmatik yondashuv nima? Pragmatika – bu til va til o'zgarishlarining kontekstda qanday ishlashini o'rganadigan lingvistik soha. So'zlovchining o'zi qo'llayotgan nutq vositalariga nisbatan munosabati, ularga yuklatadigan ma'noni o'rganadigan zamonaviy yo'nalishdir. Pragmatik yondashuv til ta'limida o'quvchilarni real hayotdagi nutq vaziyatlariga tayyorlash uchun foydalaniluvchi mahorat va ko'nikmalarni rivojlantirish demakdir.

Pragmatik yondashuv tamoyillarini quyidagicha ajratish mumkin:

Kontekst: til o'qitishda kontekstni hisobga olish, misollar va vaziyatlarni kiritish orqali tilning haqiqiy muloqotda qanday ishlashini ko'rsatish.

O'zaro aloqalar: o'quvchilarga interaktiv faoliyatlar orqali bir-birlari bilan muloqot qilish imkoniyatini berish.

Qarashlar va intonatsiya: tildan: verbal va noverbal vositalardan to'g'ri va o'rinli foydalana olishlari uchun o'quvchilarning tinglash va o'qish, yozish va so'zlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Til o'qitishda pragmatik yondashuvni amalga oshirishda bir qancha muammolar mavjud. O'qituvchilar ko'pincha grammatikani asosiy e'tibor sifatida ko'radilar, bu hol pragmatik yondashuvni e'tiborga olishni cheklaydi. Shu sababli, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari pragmatik yondashuvni o'zlarining ta'lim dasturlariga kiritishlari kerak (Bachman, 1990). Yechim sifatida, o'qituvchilar pragmatik yondashuvga mos keladigan darslar tayyorlashlari, qo'llanadigan materiallar va metodikalarni yangilashlari zarur. Shuningdek, til o'rganuvchilarni real hayotiy misollar orqali o'rgatish, interaktiv metodlardan foydalanish, guruhli ishlar va rolli o'yinlardan foydalanish ko'nikmalarni rivojlantirish uchun samarali vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Pragmatika tildagi so'z va iboralarning ma'nosiga kontekst qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Bu yo'nalish :rasida muayyan tilida so'zlashuvchilar ma'lum



maqsadlarga erishish uchun turli vaziyatlarda tildan qanday foydalanishi o'rganiladi. Ko'p tilli muhitda tilni o'rgatish talabalarni madaniy va ijtimoiy kontekstlarda tildan foydalanishdagi farqlar bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi. Misol uchun, bir xil so'zlar yoki iboralar turli madaniyatlarda turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin, bu esa o'qitishda e'tiborga olinishi kerak.

Ma'lumki, pragmatika so'zlovchining o'z nutqiga, til birliklariga munosabatidir. Turli madaniyatlar so'zlovchilarida ifoda uslubiga munosabat turlicha. Bir madaniyatda bilvosita nutq (fikrlarni hissiy, murakkab jumlar bilan ifodalash) odatiy hol bo'lsa, boshqa madaniyat nuqtayi nazaridan bu qabul qilinmasligi mumkin. Bevosita nutq akti (to'g'ridan-to'g'ri va ixcham ifoda) ma'lum bir madaniyatda oqilona hisoblansa, boshqa madaniyat nuqtayi nazaridan bu tilni yetarli darajada bilmaslik kabi ko'rinishi mumkin.

Ta'lim oluvchilar jamoasida bir-biri bilan muloqot qilish zarurati paydo bo'lishi va bu vaziyatda yuqorida aytib o'tilgan pragmatik va lingvomadaniy omillar to'sqinlik qilishi mumkin. Bu guruhda psixologik noqulaylikni keltirib chiqarishi mumkin. Nutq aktining ifodalanishi bir-biriga mos kelmasligi mumkin [Shirnova Y., Iskandarova G. 2025].

Yuqoridagi pragmatik omillarni sinfdoshlar, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotda kuzatish mumkin.

Masalan, o'z nutqida bilvosita akti ko'p ishlatadigan o'zbek tili o'qituvchisi, odatda, bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) nutq aktini qo'llaydigan o'quvchi bilan muloqotda bo'lganda suhbatdoshi tilni bilmagani uchun emas, balki nutq madaniyatiga ko'ra, nutqning bunday turini ishlatmaganligi uchun ham uni tushunmasligi mumkinligini yodda tutishi kerak.

Madaniyatlardagi o'ziga xosliklar, tabiiyki, o'sha madaniyat sohibi bo'lgan millatning tilida ham in'ikos etadi, turli madaniyat vakillari o'zaro muloqotga kirishganda bir-birining madaniy xususiyatlari haqida xabardor bo'lmasa, o'zaro muloqotlarida madaniy to'siqlar yuzaga keladi [Shirnova Y. 2022; Shirnova Y. 2023; Shirnova Y., Iskandarova G. 2024].

Muloqot jarayonida 1-kommunikant tomonidan kodlangan va aloqa kanali orqali yuborilgan xabar ikkinchi kommunikant tomonidan qabul qilib olinadi, dekodlanadi va idrok etiladi, o'z navbatida, mazkur xabar 2-tomonda turli emotsiyalarni yuzaga keltirishi mumkin. Agar suhbatdoshingizdan siz taxmin qilgan reaksiyaning qaytishini istasangiz, xabarni aniq, to'g'ri va tushunarli tarzda kodlashingiz, sifatli aloqa kanali orqali (turli xalaqit beruvchi omillar, shovqinlardan imkon qadar xoli ravishda) uzatishingiz zarur. Kommunikativ aktlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarning eng katta qismi kodlanuvchi xabar bilan dekodlangan xabarning o'zaro muvofiq emasligiga bog'liq. Mazkur nomuvofiqliklar asosan Bernar Verberning "Nisbiy va mutlaq bilimlar entsiklopediyasi" kitobidan olingan "Urinish" muammosidagi quyidagi sabablarga bog'liq bo'lishi mumkin:

1. Ayni paytda men nima deb o'ylayman?
2. Men nima demoqchiman?
3. Nimani aytgandek tuyuldim?



4. Men nima dedim?
5. Nima eshitishni xohlaysiz?
6. Nimani eshitdim deb o'ylaysiz?
7. Nimani eshitdingiz?
8. Nimani tushunmoqchisiz?
9. Tushundim deb o'ylaganingiz.
10. Nimani tushunganingiz?

Muloqotda qiyinchiliklar paydo bo'lishining o'ndan bir ehtimoli bor. Ammo baribir harakat qilaylik... [Bernar Veber]. Darhaqiqat, Bernar Verber qayd qilib o'tgan 10 banddan birortasida nomutanosiblik bo'lsa, muloqotda anglashmovchilik va pirovardida ziddiyatli vaziyat yuzaga kelishi mumkin [Shirinova Y. 2022; Shirinova Y. 2024]. Ta'lim jarayoni, xususan til ta'limi jarayonida kommunikantlar fikrni to'g'ri va to'liq ifodalashga o'rgatilishi kerak, zero bu yuzaga kelishi mumkin bo'lgan anglashilmovchiliklarning oldini oladi.

Ziddiyatli muloqotni nazorat ostida ushlash, uni ijobiy hal qilish mumkinmi?

Buning uchun kishidan o'z emotsiyalarini nazorat qilish, qalbaki sabablardan haqiqiy sabablarni ajratib olish, ziddiyatni lokallashtirish, faqat himoyaga diqqatni qaratishdan qochish, tashabbuskorlikni o'z qo'lida ushlab turish talab etiladi. Ziddiyatni hal etishning to'rtta yo'li mavjud: bo'ysundirish, kompromiss, qochish va integratsiya. Oxirgi yo'l eng qiyin, lekin uni amalga oshirish mumkin. Ziddiyatli vaziyatlardan chiqishni bilmaslik, har qanday kishi uchun muomala jarayonida paydo bo'ladigan ko'plab kundalik qiyinchiliklarni yengib o'tish, jismoniy va psixik sog'liqqa putur yetkazuvchi emotsional stresslarga olib keladi [*Ma'murova, Abdullayeva, Yusupjonova, 2021: 206*].

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatning boshqa a'zolari bilan muloqotga kirishayotganda nafaqat xabar va hislarni almashinishimizni, balki bu o'rinda bizning manfaatlarimiz to'qnashuvi sodir bo'lishi hisobga olib, mavridli, oqilona, samimiy, ziyonsiz muloqotga kirishishimiz maqsadga muvofiqdir. To'g'ri, muloqotga kirishishimizning eng asosiy stimuli muayyan ehtiyojimizni qondirishga qaratilgani bois kommunikativ maqsadga maksimal darajada erishishga intilamiz, biroq bu boshqalarning manfaatlarini so'ndirib qo'yish evaziga bo'lmagani, har ikki tomon uchun ma'qul yechim, murosa bilan chiqib ketilgani ma'quldir. Mazkur holatlar bevosita til ta'limida ham hisobga olinishi zarur. Til ta'limida pragmatik yondashuv ko'plab afzalliklar taqdim etadi. Bu nafaqat til bilimlarini, balki butun madaniy kontekstni ham o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv yordamida til o'rganish jarayoni yanada mazmunli va samarali bo'ladi. Til o'rganish murakkab jarayon bo'lib, u kuchli ehtiyojlarni, samarali o'qitish uslublari va yondashuvlarini hamda til o'rganuvchilar va o'qituvchilarning uzluksiz harakatlarini talab qiladi. Kuchli salohiyat va mas'uliyat talab qiladi. Bunga erishish uchun tilni, bizning misolimizda o'zbek tilini o'rgatishda o'qituvchi birinchi navbatda o'z o'quvchilarining nutq madaniyati, nutqining lingvopragmatik xususiyatlari to'g'risida ma'lum



tushunchaga ega bo'lishi, shuningdek, tilning nafaqat lug'at va grammatikasini o'rgatishi, balki til madaniyati va lingvopragmatik jihatlarini ham tushuntirishi, o'quvchilarning sotsiopragmatik qobiliyatlarini rivojlantirish ustida ish olib borishi zarur. Til o'qitish metodiga psixolingvistika, lingvopragmatika va lingvomadaniyatshunoslikning nazariy tamoyillarini joriy etish zarur.

Adabiyotlar

1. Bachman, L. F. (1990). *Fundamental Considerations in Language Testing*. Oxford: Oxford University Press.
2. Беспалова, С, 2003 «Коммуникативно-прагматическая организация обучения иностранным языкам: Немецкий язык, языковой вуз» дисс.канд.филол наук//[Диссертация на тему «Коммуникативно-прагматическая организация обучения иностранным языкам: Немецкий язык, языковой вуз», скачать бесплатно автореферат по специальности ВАК РФ 13.00.02 - Теория и методика обучения и воспитания \(по областям и уровням образования\)](#)
3. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.
4. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Muxamedova S.X., Shirinova Y.T. Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlilik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga :r. O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti, 2024, 1(01), 3-6. Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/anjuman/article/view/96>
6. Savignon, S. J. (2002). *Communicative Language Teaching: Strategies and Techniques*. New Haven: Yale University Press.
7. Tuychieva M. U. (2023). Pedagogical, methodological and psychological aspects of attracting teenagers to fiction. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(11), 28-39.
8. Tuychieva M. U. (2025). Research on logical thinking in literary education. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 5(3), 27-33.
9. Tuychieva M. (2025). The importance of age-specific characteristics in the process of guiding thinking in literary education. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 5(4), 18-22.
10. Shirinova, Y., Iskandarova, G. (2024). Inson – madaniyatlar chorrahasida. O'zbekiston: til va madaniyat. *Amaliy filologiya masalalari*. 2 (5): 83-89. :: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/NQUG6205//
<https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/79>
11. Shirinova, Y.T. 2022. Madaniyatlararo kommunikatsiya xususida // INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. September. [\(в формате PDF\) МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ, ПОСВЯЩЕННАЯ РОЛИ И ЗНАЧЕНИЮ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В 21 ВЕКЕ \(researchgate.net\)](#)
12. Ширинова, Е. Т. 2023. «Некоторые соображения о коммуникации». Узбекистан: язык и культура. *Вопросы прикладной филологии*. 1(5): 84-91. Получено с <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/84-91> :: <https://www.aphil.tsuull.uz/10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/EFEZ1339>
13. Shirinova, Y. (2024). НЕКОТОРЫЕ ПРИНЦИПЫ И ПОДХОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В МНОГОЯЗЫЧНОЙ И ПОЛИКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ. *Uzbekistan Language and Culture*, 1(01). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/110>



14. Shirinova, Y. (2024). КОНФЛИКТНОЕ ОБЩЕНИЕ: ФАКТОРЫ, ПРИЧИНЫ, НЕКОТОРЫЕ ПУТИ ПРЕОДОЛЕНИЯ. *Uzbekistan Language and Culture*, 2(02). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/113>

15. Shirinova, Y.T., Iskandarova, G.T. 2025. "Til ta'limiga antroposentrik yondashuv masalasiga :r". O'zbekiston: Til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1 (5): 165-176.: 10.52773/tsuull.aphil.2025.1 (5)/UGNZ2770.

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Xaydarova Madinaxon Umidjonovna

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi*

1-kurs magistranti

madinakhaydarova726@gmail.com

Annotatsiya. Sinergetika bugungi kunda o'quvchi-yoshlarning yangi dunyoqarashini shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ijodiy va prognostik fikrlash o'quvchiga o'z-o'zini tashkil qilish tizimi sifatida ishlashga yordam beradi. Mazkur maqolada sinergetik yondashuvning mohiyati, o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish mezonlari, hamkorlikda o'qitishning afzalliklari hamda 5-sinf o'quvchilarida leksikologiya bo'limiga oid lingvistik bilimlarni sinergetik yondashuv asosida o'qitish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: sinergetika, sinergetik yondashuv, hamkorlikda o'qitish, shaxslararo munosabat, pedagogik hamkorlik, leksikologiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность синергетического подхода, критерии деления учащихся на малые группы, преимущества совместного обучения, а также методика преподавания языковых знаний по лексикологии учащимся пятых классов на основе синергетического подхода.

Ключевые слова: синергетика, синергетической подход, совместное обучение, межличностные отношения, педагогическое сотрудничество, лексикология.

Abstract. This article discusses the essence of the synergistic approach, the criteria for dividing students into small groups, the advantages of collaborative learning, and the methods of teaching linguistic knowledge in the lexicology section to 5th grade students based on the synergistic approach.

Keywords: synergetic, synergistic approach, collaborative learning, interpersonal relationships, pedagogical cooperation, lexicology.

Zamonaviy jadal rivojlanayotgan dunyoda ko'p maqsadli, global qarashga, jamiyatning murakkab muammolarini tahlil qilishga qodir, turli muammolarni hal qilishga tayyor shaxsni shakllantirishga katta talab mavjud. Bugungi kunda bo'layotgan o'zgarishlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi o'qitish tizimi uni yanada rivojlantirish strategiyasini nazarda tutuvchi mutlaqo yangicha yondashuvga ehtiyoj sezmoqda. Globallashuv davrida pedagogika sohasida turli xil yondashuvlardan foydalanish o'z samarasini berib kelmoqda. Xususan, til o'zlashtirishda sinergetik yondashuv sinergetikaning asosiy tamoyillarini



<i>Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i>	701
<i>Odiljonova Nilufar Abduvohob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i>	706
<i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIY TAJRIBASI</i>	712
<i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i>	716
<i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	721
<i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSLARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i>	727
<i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i>	731
<i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i>	735
<i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSLARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>	742
<i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i>	747
<i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i>	752
<i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	756
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i>	762
<i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i>	767
<i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i>	774
<i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i>	780
<i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	785
<i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i>	790

